

GTAR 17.71.91

Ilmiy maqola

A.Sh. Sobirov¹, Z.A. Djurabayeva²¹*Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti, Andijon, O'zbekiston.*²*Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O'zbekiston.**(E-mail: ¹sobirov-1957@mail.ru, ²zamiradjurabayeva-1958@gmail.com)***“Sen O'Lanni Oq Ko'Ngil Kishiga Ayt...”**

Annotatsiya. Maqolada qozoq adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Abay Qo'nanboev she'rlarining tili, ularda qo'llangan leksik birliklar va badiiy tasvir vositalari haqida so'z yuritildi. Bu ish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun ijodkor juda katta qalb egasi bo'lmog'i, o'z xalqini yurak-yurakdan sevmog'i, uning dardini o'z dardi sifatida qabul qilib, millat ravnaqi uchun jonini tikmog'i darkor bo'ladi. Shunday taqdir egalari qatorida buyuk qozoq shoiri Abay Qo'nonboyevning borlidan mamnun bo'lasan kishi.

Kalit so'zlar: Abay Qo'nanboev, yozuvchi, ijodkor, shoir, she'r, leksik birliklar, badiiy tasvir vositalari, qozoq adabiyoti, turkiy xalqlar adabiyoti.

DOI: <https://doi.org/10.71078/jxmk3s39>

Qabul qilindi: 30.11.2025; Tasdiqlangan: 22.12.2025; Onlayn mavjud: 25.12.2025.

Kirish

O'zbek, usmonli turk va qozoq tillarida chinor / çinar ağacı / shinar degan ko'hna so'z bor. Bu daraxt boshqa daraxtlardan tanasining baquvvatligi, tomirlarining teranligi, shoxlarining har yonga keng tarmoqlanib ketishi bilan alohida ajralib, ko'rk, viqor bilan tovlanib turadi. Turkiy tillar ramziy ma'noda mana shu ulkan chinor daraxtiga o'xshaydi. Bu daraxtdagi eng kuchli shoxlarni o'zbek, usmonli turk, qozoq tillari tashkil etadi.

Til daraxtini parvarishlash, uni kelgusi avlodlarga bus-butun holda yetkazib berishda esa ijodkorlarning o'rni beqiyos. Turk dunyosining adabiyot osmoni yulduzlar qadar ijod ahliga boy. “Kul Tegin”, “Bilka hoqon”, “To'nyoquq bahodir” kabi bitiktoshlarning muallifi Yo'lluq tegindan boshlanib, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Nozim Hikmat, Aziz Nesin, Rashod Nuri Guntekin, Muxtor Avezov, O'ljas Sulaymonov kabi ijodkorlar tomonidan baland pardalarda kuylangan turkiy tillar jilosi hamon jahon adabiyot ahlini o'ziga maftun etib kelmoqda. Ular ichida Abay Qo'nonboyevning alohida o'rni bor.

“Tarix go'yo katta yo'ldan o'tgan bir karvon, – deb yozadi Muxtor Avezov, – Bu karvon o'z yo'lidagi manzillardan birida to'xtab o't yoqadi. Karvon ketgach, guxan o'chib, kuli qoladi. Kul sovib, uning tagida qolgan bittagina cho'g'ni bizning kunlarimizgacha o'chirmay kelish lozim. Adibning vazifasi kul ostidagi shu cho'g'ni topish, uni puflab, o't oldirib, karvon shu yerda manzil topganida, gulxan qanday lovullagan bo'lsa, uni yondirishda iborat” (Avezov: 1997, 21).

Tadqiqot metodologiyasi

Bu ish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun ijodkor juda katta qalb egasi bo'lmog'i, o'z xalqini yurak-yurakdan sevmog'i, uning dardini o'z dardi sifatida qabul qilib, millat ravnaqi uchun jonini tikmog'i darkor bo'ladi. Shunday taqdir egalari qatorida

buyuk qozoq shoiri Abay Qo'nonboyevning borlidan mamnun bo'lasan kishi.

Abay jismiga monand ismlardan sanaladi. U "hushyor", "ehtiyotkor", "himoya, muhofaza qilingan" degan ma'nolarni anglatadi.

Darhaqiqat, Abay nafaqat qozoq xalqini, balki butun dunyodagi taraqqiyparvar insonlarni youzlik, jaholat, ichi qoralik, baxillik, ishyoqmaslik, ikkiyuzmamachilik va shu kabi yomon illatlardan himoya qilgan, odamlarni ezgu ishlarga, xayr-saxovatga, yaxshiliklarga chorlagan adiblardan biri sanaladi. Shuning uchun uning nomi o'zbek xalqi tomonidan ham doimo e'zozlanib kelinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 13-mart kungi "Buyuk qozoq shoiri va mutfakkiri Abay Qo'nonboyev ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish to'g'risida"gi PQ-3598-son Qarori fikrimizning yorqin dalilidir (Yangi O'zbekiston gazetasi, 2018-yil 14-mart, 1).

Mavzuni o'rganish darajasi

Bilamizki, Abay Qo'nonboyev Shangerey, Shurtonboy, Oqon Seri, Shaadi to'ra Jangirov, Bazor jirov, Qorasqol Erimbet, Qulinchoq, Mali xo'ja, Kenje xo'ja kabi qozoq shoirlari qatori Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur asarlarini chuqur o'rganib, badiiy baquvvat asarlar, ajoyib dostonlar yaratgan. Uning 1858-yili o'spirinlik chog'ida yozgan "Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy" nomli asari bunga misol bo'la oladi.

Adib ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiga boshqacha mehr bilan qaragani ma'lum. Uning "Xamsa" dostonidan ilhomlanib, "Iskandar" dostonini yaratgan, o'g'li Oqilboyga Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostoni syujeti asosida "Jarroq" nomli doston yozishni topshirgan.

Qozoq adibi Qaldbek Seydanovning eslashicha, Abay suhbatlaridan birida: "Bobur shohning onasi bilan tug'ishgan ikki qarindoshi bo'lgan. Kattasi Toshkentda xon bo'lsa, kichigi qozoqlarga hukmronlik qilgan. Bular Chig'atoy naslidan bo'lgan Yunusxonning bolalari edi. O'sha qozoqlarga hukmronlik qilganining nomi Ahmad edi. U qozoqlar orasidan uch yuz askar to'plab, qalmoqlar bilan kurashgan. Bu kurashda Ahmad xon qalmoqlarga qaqshatqich zarba berganidan uni qalmoq xoni: "Bu bir yonolg'ish bo'ldi", – deyish o'rniga: "Mana bu bir Alash bo'ldi-ku", – deb yuboradi. Shundan uning nomi "Alash" deb nomlanib qoladi". Shuningdek, Abay nabiralalaridan birining ismini Bobur deb ataydi (Seydanov: 2015, 140).

Bu ma'ulumotlar Abay Qo'nonboyevning o'zbek xalqi va o'zbek adabiyoti bilan juda yaqin bo'lganini ko'rsatib turibdi.

Shoir bir she'rida shunday deb yozadi:

*"Murodim tilpi charxlab hunar sochmoq,
Nodoning ko'zi tugul, ko'nglin ochmoq.
O'rnak olishsin deymay yosh ypgitlar,
Shul gailarii aytganda dimog'im chog'"* (Abay: 1970, 41).

Mazkur satrlar faqat qozoq xalqiga emas, balki butun turk dunyosiga qarata aytilgandek. Uning asarlarida qo'llangan juda ko'p leksik birliklar o'zbek qavmlarining aksariyatida, ayniqsa, o'zlarini qo'ng'iroq eli deb ataydigan Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand va Farg'ona vodiysi qipchoq shevalarida ham qo'llanib kelingan.

Misollarga e'tibor beraylik.

*Aql kerak, ish kerak, xulq kerak,
Er uyalar ish qilmas bo'lsa ziyrak.
Shilta, shilqim, lo'ttiboz bo'lsa agar,
Undaylarga do'st topilar juda siyrak* (Abay: 1970, 25).

Ijod ahli kuzatuvchan bo'ladi. Agar u xalq, ayniqsa, oddiy insonlarning turmush tarzini bilmasa, ularning yashash sharoitlari, maishiy hayoti, urf-odatlari, qadriyatlaridan yaxshi xabardor bo'lmasa, uniing yozganlari yasama, sun'iy bo'lib qoladi. Abayda kuzatuvchanlik

kuchli bo'lgan. Shye'rlariga kiritilgan har bir so'z hayotiy, turkiy elatlarning qiyofasini to'la chizib bera olgan.

*"Chin do'stlik, suhbatdoshlik ulug' ishdur,
Buning qadri noqobillar bilmas hech bir.
Chin inson ortdan so'zlab, kulib yurmas,
O'zgalarga zinhor-zinhor yetkazmas sir".*

Natijalar va munozaralar

Abay – qozoq elining chin farzandi. Haqiqiy qozoq esa ona tabiatga, undagi o'simliklar va hayvonot dunyosiga oshiq bo'ladi. O'rinsiz yulingan bitta barg ham uning qalbini titratadi, shum niyat bilan qushlarga, kiyiklarga qarata otilgan o'q esa uning yuragiga qadaladi. Shu bois, shoir she'rlarida burgut, lochin, ot, tuya, qo'y-qo'zi, kiyik tasvirlariga ko'p duch kelinadi. E'tiborlisi, ularning ayrimlari faqat bag'ri keng qozoq xalqi tilida uchraydi. Masalan:

"Tumagini burgutchi boshdan olar, Qiron qush ko'zi ko'rib intilganda"; "Bir pog'ora yotar ekan, chalgan edi, YElmoyalar chiqdi yerpi dupirlatib" (Abay: 1970, 137); "Ko'l yoqalab uchishar o'rdak ham g'oz, Uni izlab yugurar bola shovvoz; Uchqur otni egarlab yo'lga tushsang, Chakmoqday tez ov olar bo'z dovulboz" (Abay: 1970, 71).

Satrlarda keltirilgan tumag' – o'rgatilgan ov qushining boshiga kiydiriladigan teri qalpoqcha, yelmoya – yugurik turg'ochi tuya, dovulboz – lochin qushi.

Ushbu leksik birliklar faqat cho'l va sahro kengliklarida ov qilib yurgan ovchi xallqa xos.

Shu kabi jondor – bo'ri, chuvir – ot kabi leksemalarga ham duch kelinadi. Bo'rini jondor deyish Surxondaryo, Qashqadaryo xalqida hozir ham faol qo'llanadi.

Bo'ri enish tepasiga sakrab chiqishi bilan qadam tovushlari – chag'ir toshlarning shaqur-shuquri tinib, havoda hayajonli xitoblar qanotlandi:

– E! Jondormi?!
– Shunga o'xshaydi!
– Qaysi go'rdan paydo bo'ldi?!
– O'ngirdan chiqqanday bo'ldi!
– Ini borgan o'xshaydi!
– Shunga o'xshaydi!
– Endi nima qilamiz?! (Norqobilov: 2020, 31).

Abayning har bir she'rida keng dashtliklarda ot surib yurgan, mard va jasur, sarkash qozoq "jigitlari" va oq morol singari go'zal, hurkak qizlarining betakror timsollari o'z tarannumini topgan.

*"Naq bilakday sochi uning o'rim-o'rim,
Cho'lpisi, asta yursa, jarang-juring.
Qunduz bo'rk, oq tomog'u qora qoshli,
Ko'rganmisan suluv qiznig bunday turin?" (Abay: 1970, 52).*

Parchadagi "cho'lpisi" leksik birligi avvallari barcha turkiy xalqlar tilida bor bo'lib, "ayollarning sochga taqadigan yoki ko'krakka tushirib yuriladigan, kumush yoki oltindan yasalgan ziynat buyumi"ni anglatadi.

Abay mahoratining yana bir qirrasini uning til birliklari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshi bilishiga borib taqaladi. U tilshunoslikda giponimiya, ya'ni jins-tur deb atalgan munosabatdan yaxshi xabardor bo'lgan. Shu bois, uning she'rlarida ot va uning turlarini anglatuvchi toy, biya, ayg'ir; gul nomlarini anglatuvchii quvray, gul, chechak va h.k. leksik birliklar faol qo'llangan.

Masalan: *Bu elda bo'z bola yo'q, so'z ukarlik, Yaxshi ayg'irga bnya yo'k, ot tug'arlpk.* (Abay: 1970, 22); *"Toyga mindik, To'yga chopdik, Yaxshi kiyim kiypnpb. Ukki taqdik, Kulib boqdik, Yo'd narsaga suyunib. sirg'iy uchdi, Qushni quchdi, Ne bitdi?"* (Abay: 1970, 114); *Qirda to'rg'ay sayrasa, soyda –*

bulbul, Gul bila to'lib ketar – gul etaklar.

Abay – tasvirga usta shoir. Birgina "Qish" she'rida ushbu faslni shunday tasvirlaydi. Bundan ortiq qishni tasvirlab bo'lmasa kerak.

*Oq kiyimli, pahlavon, oq soqolli,
So'qir, gung, hech tanimas tirik jonni,
Ust-boshi oq qirovli, tusi sovuq,
G'archillab keldi qishning qahratoni.
Nafasidan esib turar ayoq va qor,
Qari tullak qipih kelib tashvish soldi.
Chaqmaqi bo'rkin kiygan chekkasiga,
Ayoqdan yuz qirmizi chiroq oldi.
Ikki kuzin bulutday donga yopgan,
Bosh silkisa, dorlar yog'ib, mazang olar.
Ola-tasir bo'ronday jini do'zg'ab,
Olti danot od o'rdaga titrod solar (Abay: 1970, 38).*

Xulosa

Umuman olganda, Abay xalq dardi bilan yashagan va turkiy xalqlar tarixida o'chmas iz qoldirgan yetuk ijodkorlardan sanaladi. Uning she'rlaridagi g'oya, badiiy tasvir vositalari, eng muhimi, asarlari tili o'zbek kitobxonlari yuragiga ham yaqin. U turkiy xalqlarning sayrog'i bulbullaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Абай. (1970). *Шеърлар ва поэмалар*. Тошкент. Г'афур Г'улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

Сейданов, Қ. (2015). Навоий ва Абай. *Жаҳон адабиёти*, (8), 137–140.

Норқобилов, Н. (2020). Чол ва бола. *Ёшлик*, (9-10), 31–37.

Tog' kabi yuksak. (1997). Buyuk qozoq adibi Muxtor Avezovning 100 yilligiga bag'ishlanadi. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qunonboyev ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish to'g'risida (PQ-3598-son qaror). (2018, 13 mart). *Yangi Uzbekiston gazetasi*, 14 mart.

Ismlar. (n.d.). Ismlar ma'nosi. <https://ismlar.com/uz/name>

Wiktionary. (n.d.). Keraga. <https://uz.wiktionary.org/wiki/keraga>

References

Abay. (1970). *She'rlar va poemalar*. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Seydanov, Q. (2015). Navoiy va Abay. *Jahon adabiyoti*, (8), 137–140.

Norqobilov, N. (2020). Chol va bola. *Yoshlik*, (9-10), 31–37.

Tog' kabi yuksak. (1997). Buyuk qozoq adibi Muxtor Avezovning 100 yilligiga bag'ishlanadi. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qunonboyev ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish to'g'risida (PQ-3598-son qaror). (2018, 13-mart). *Yangi O'zbekiston gazetasi*, 14-mart.

Ismlar. (n.d.). Ismlar ma'nosi. <https://ismlar.com/uz/name>

Wiktionary. (n.d.). Keraga. <https://uz.wiktionary.org/wiki/keraga>

А.Ш. Собиров¹, З.А. Джурабаева²

¹Захириддин Мұхаммед Бабури атындағы Әндіжан мемлекеттік университеті,
Әндіжан қ., Өзбекстан

²Әндіжан мемлекеттік педагогикалық институты,
Әндіжан қ., Өзбекстан

(E-mail: ¹sobirov-1957@mail.ru, ²zamiradjurabayeva-1958@gmail.com)

«Ақ көңілді адамға айт...»

Аңдатпа. Мақалада қазақ әдебиетінің жарқын өкілдерінің бірі Абай Құнанбаевтың өлеңдерінің тілі, оларда қолданылған лексикалық бірліктер, көркем сөз құралдары туралы сөз болады. Бұл жұмыс әркімнің қолынан келе бермейді. Мұны істеу үшін жаратушының жүрегі өте үлкен болуы, өз халқын шын жүректен сүйуі, оның азабын өзінің азабы ретінде қабылдауы және өз өмірін ұлттың өркендеуі үшін тігуі ауыр болады. Осындай тағдырдың иелері арасында қазақтың ұлы ақыны Абай Құнанбаевтың болғанына риза боласыз.

Түйін сөздер: Абай Құнанбаев, жазушы, жасампаз, ақын, поэзия, лексикалық бірліктер, көркем сөз құралдары, қазақ әдебиеті, түркі халықтары әдебиеті.

A.Sh. Sobirov¹, Z.A. Djurabayeva²

¹Andijan State University named after Zahiriddin Muhammad Babur,
Andijan, Uzbekistan

²Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

(E-mail: ¹sobirov-1957@mail.ru, ²zamiradjurabayeva-1958@gmail.com)

“Say thou to the white man...”

Abstract. The article discusses the language of the poems of Abai Kunanbayev, one of the most prominent representatives of Kazakh literature, focusing on the lexical units and artistic expressive means used in his poetic works. To do this, it will be painful for the creator to have a very big heart, to love his people with all his heart, to accept his suffering as his own, and to sew his life for the prosperity of the nation. You will be grateful that the great Kazakh poet Abai Kunanbayev was among the owners of such a fate.

Keywords: Abai Kunanbayev, writer, creator, poet, poetry, lexical units, artistic expressive means, Kazakh literature, literature of the Turkic peoples.

Mualliflar haqida ma'lumot:

Sobirov Abdulhay Shukurovich – filologiya fanlari doktori, professor, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti, Andijon, O'zbekiston.

Djurabayeva Zamira Axmedovna – PhD, dotsent, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O'zbekiston.

Автор туралы мәлімет:

Собиров Абдулхай Шукурович – филология ғылымдарының докторы, профессор, Захириддин Мұхаммед Бабури атындағы Әндіжан мемлекеттік университеті, Әндіжан қ., Өзбекстан.

Джурабаева Замира Ахмедовна – PhD, доцент, Әндіжан мемлекеттік педагогикалық институты, Әндіжан қ., Өзбекстан.

Information about authors:

Sobirov Abdulhay Shukurovich – Doctor of Philology, Professor, Andijan State University named after Zahiriddin Muhammad Babur, Andijan, Uzbekistan.

Djurabayeva Zamira Axmedovna – PhD, Associate Professor, Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan.



Бул жұмыс Creative Commons Attribution-Коммерциялық Емес 4.0 Халықаралық лицензиясы бойынша лицензияланған.
This work is licensed under Creative Commons Attribution-Noncommercial 4.0 International License